

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining innovatsion mahsulotlari ko'rgazmasi boshlandi

// 25.07.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/innovatsion-rivojlanish-vazirligi-binosida-tashkillashtirilayotgan-uzkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalarining-innovatsion-mahsulotlari-kurgazmasi-boshlandi>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son qaroriga muvofiq ilmiy tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash maqsadida joriy yilning may-oktyabr oylari davomida Innovatsion rivojlanish vazirligida iqtisodiyot tarmoqlari va sohaning ilmiy ishlanma va innovatsion mahsulotlari ko'rgazmasini tashkil etish rejalashtirilgan. Ushbu rejaga asosan Innovatsion rivojlanish vazirligi binosida tashkillashtirilayotgan "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining innovatsion mahsulotlari ko'rgazmasi boshlandi.





Ko'rgazma 2022-yilning 27-iyul kuniga qadar davom etadi.

Mazkur ko'rgazmada "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalaridan so'nggi 5 yilda innovatsion loyihalar doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar namunalari namoyishi, ilmiy yondashuvni talab etadigan loyihalar, korxonalar va ularning innovatsion faoliyati yuzasidan taqdimotlar o'tkazilmoqda.







“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati